NOTO`LIQ OILADA VOYAGA YETAYOTGAN FARZANDLARNI IJTIMOY HAYOTGA MOSLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Muratova Nozima Xabibullaevna
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktaranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.8051875

Annotatsiya. *Maqolada noto‘liq oila masalasiga bag‘ishlangan ishlarning ilmiy tahlili va muallifning shaxsiy ilmiy qarashlari asosida noto‘liq oilaning kelib chiqish omili va sabablari, turlari, bola shaxsi shakllanishiga ta’siri ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida o‘z ifodasini topgan.*

Kalit so‘zlar: *noto‘liq oila, shaxsni shakllantirish, noto‘liq oila turlari, oilaga psixologik-pedagogik yordam, oila funksiyalari.*

Mustaqillik davrida O‘zbekistonda xalq hayotida misli ko‘rilmagan ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shu bilan birga so‘nggi o‘n yillikda bir qator muammolar yanada dolzarblashdi. Shulardan biri – oila institutining zaiflashishi, ajralishlar va ularning asorati sifatida noto‘liq oilalar sonining keskin o‘sishidir.

Noto‘liq oila masalasini ilmiy tadqiq etgan ishlar (Shoumarov Z.A., Yadgorova G., Marion M., Ricciuti H., Zelenchukova S.V., Nedelina Ye.V.) tahlillari va bizning shaxsiy ilmiy kuzatuvlarimizga ko‘ra, muammoning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi [2]:

Birinchidan, jamiyatda noto‘liq oilalar sonining ortib borishi oila institutiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, uning mustahkamligini zaiflashtirib boradi.

Ikkinchidan, noto‘liq oilalar sonining ortishi yoshlarda oila haqidagi tasavvurlarining to‘g‘ri shakllanishiga salbiy ta’sir qiladi. Qizlarning ma’lum qismi noto‘liq oilani o‘zlari uchun andoza sifatida oladilar. Bu esa noto‘liq oilalar sonining yanada oshishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, yoshlardan komil shaxs shakllantirishda qator muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

To‘rtinchidan, yosh oilalar, aksariyat holda ayollar va bolalarni iqtisodiy jihatdan murakkab vaziyatga tushiradi.

Beshinchidan, voyaga yetmagan yoshlarda jinoyatchilik, shu jumladan, ularning og‘ir turlarining o‘sishiga shart-sharoit yaratadi.

Oltinchidan, ota-onalarga eng muhim vazifalari – tarbiya funksiyalarini to‘laqonli ado etishlariga yetarli imkon bermaydi.

Yettinchidan, ayollarning ma’lum qismida jinsiy-tanosil kasalliklarining ko‘payishi, reproduktiv organlarida onkologik xastaliklar sonining oshishiga olib kelishi mumkin.

Sakkizinchidan, jamiyatda poliandriya va poligeniya, ya’ni ko‘p erlik hamda ko‘p xotinlik holatlarining o‘sishiga olib keladi.

To‘qqizinchidan, mahalliy millatlar, jumladan, o‘zbeklardagi o‘ta muhim, qimmatli etnopsixologik xislatlardan biri bo‘lgan ota-ona hurmati, oiladagi mavqei, ota-onalik va farzandlik burchlarining shakllanishiga salbiy ta’sir qiladi.

O‘ninchidan, avlodlar orasidagi xissiy emotsional yaqinlik, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarning zaiflashishiga olib keladi.

O‘n birinchidan, ota modeli, namunasining yo‘qligi o‘g‘il bolalar shaxsining erkak, oila boshlig‘i, ota sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir qiladi, ularda ayolsifat xarakterning paydo bo‘lishiga imkon yaratadi. Qizlarda ota yo‘qligi ota mavqei, hurmati, er-xotin munosabatlarini

ko‘rmasligi, voyaga yetib shaxsiy oilaviy hayot qurganda er-xotin munosabatlarini talab darajasida olib borishiga salbiy ta’sir qiladi.

Bizning fikrimizcha, noto‘liq oilalar sonining kun sayin ortib borishi sabablarini quyidagilar tashkil qiladi [3].

Buning eng asosiy sabablaridan biri – yoshlarimiz oilaviy xhyot haqida to‘laqonli va psixologik pedagogik jihatdan to‘g‘ri savodli tasavvurga ega emasligi. Aksariyat yoshlar oilaviy hayotni «asal oyi» kabi tasavvur qiladilar, vaholanki oilaviy hayot har bir yosh uchun katta taqdir sinovidir. Har bir oila «Oilaviy hayot chidaganga chiqarilgan» tamoyili bilan yoshlarni turli iqtisodiy, axloqiy, individual-psixologik, shu jumladan, sabr-chidamlilik sinovidan o‘tkazadi. Afsuski, yosh oilalarning ma’lum bir qismi bu sinovlarga bardosh berolmay, noto‘liq oilalar sonining keskin o‘sishiga olib keladi.

Noto‘liq oilalar ko‘payishiga olib keluvchi muhim sabablardan navbatdagisi oila masalalarida shaxs xulqi ustidan ijtimoiy nazoratning susayishi, «Odamlar nima deydi?» mazmunidagi an’anaviy savol ta’sir kuchining keskin zaiflashib ketganligi.

Albatta, demokratik jamiyat qurayotganda shaxs erkinligini ta’minlashimiz, fuqaroning shaxsiy hayotiga qo‘pol ravishda aralashmasligimiz darkor. Shu bilan birga, biz yoshlarning oilaviy hayotida uchrashi muqarrar bo‘lgan sinov va muammolarga oldindan tayyorlab, uni oila to‘liqligi, oila a’zolar salomatligiga salbiy ta’sir etmagan holda hal qilish, sinovlardan yosh oilani talofatsiz olib chiqishga yordam berishimiz lozim.

Bu borada Xotin-qizlar qo‘mitasi, «Mahalla», «Sog‘lom avlod» fondlari, hokimliklar va hukumat tomonidan katta samarali ishlar olib borilmoqda [5].

Noto‘liq oilada bola shaxsini talab darajasida shakllantirishda fikrimizcha quyidagilarga e’tibor berish lozim.

1. Noto‘liq oilada bola tarbiyalayotgan yosh onalarga psixologik yordam ko‘rsatish kerak. Bu psixologik pedagogik maslahat, pedagogik trening, psixologik monitoring, psixologik tashviqot, seminar, maxsus o‘quvlar (ota-onalar universiteti doirasida), maxsus tayyorlangan buklet, broshyuralar va boshqa shakllarda bo‘lishi mumkin. Bunda har bir noto‘liq oilani o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy holatini hisobga olish zarur.

2. Noto‘liq oilada o‘sgan va o‘z sohasida taniqli bo‘lgan artist, sportchi, olim, rahbar, yozuvchi, shoir va boshqalarni maktab o‘quvchilari bilan uchrashuvlarini tashkil qilib, ular hayotidagi qiyinchiliklarni qanday yengib, shunday muvaffaqiyatlarga erishganliklari haqida davra suhbati qilish lozim. Bundan maqsad noto‘liq oilani ideallashtirish emas, balki yoshlarda, ayniqsa, noto‘liq oilada voyaga yetayotgan bolalar hayotida uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga o‘rgatishdir. Bunday uchrashuvlar to‘liq oila bolalariga ham foydalidir.

3. Noto‘liq oilada o‘sayotgan o‘g‘il bolalarni (agar o‘z otasi namuna vazifasini bajara olmayotgan bo‘lsa) qarindoshlar, qo‘shnilar yoki yaqin tanishlar orasida har tomonlama namuna bo‘ladigan kishi vaqtincha otaliqqa olishi. Otaliqqa olgan erkak yoki ayol vaqti- vaqti bilan o‘z farzandlari bilan birga noto‘liq oilada voyaga yetayotgan bolaning bo‘sh vaqtini madaniy tashkil etishi lozim, toki otasiz o‘sayotgan bola yoki qiz to‘laqonli oiladagi munosabatlar, ota va ona mavqei, ular orasidagi namunali munosabatlarni idrok etib, o‘ziga kelgusi hayotida namuna sifatida olsin.

4. Oila funksiyalarni past darajada bajarayotgan noto‘liq, moddiy jixatdan o‘ta nochor oilalardagi bolalarni mahalla, psixolog tavsiyasiga ko‘ra onaning roziligi bilan vaqtincha bir

yilga mehribonlik uylariga qabul qilish va bir yil o‘tgach muddatini uzaytirish masalasini ona ishtirokida mahalla faollari, psixolog, mehribonlik uyi rahbarlari ko‘rib chiqishlari tavsiya etiladi.

REFERENCES

1. Shoumarov G., Rasulova Z. Neft ensiklopediyasi. - T .: "Ilm-Ziyo Zakovat", 2016 yil.-270-b. Lapshina E.A. Maktab ta'lim tizimida to'liq bo'lmagan oilalar o'quvchilarining raqobatbardosh shaxsini shakllantirishning pedagogik shartlari. / Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya va avtoreferat. - Ulyanovsk. 2010 yil.
2. Amber Smith.The influence of Family Dynamics in Predicting Juvenile.
3. Nikolaeva Ya.G. To'liq bo'lmagan oilada bolalarni tarbiyalash jarayonini takomillashtirishning pedagogik shartlari: Chuvash Respublikasi materiali bo'yicha. / Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya va avtoreferat. - Cheboksari, 2013 yil.
4. Zelenchukova S.V. To'liq bo'lmagan oilalardagi o'smirlarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik shartlari. / Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya va avtoreferat. - Barnaul, 2012 yil.
5. Nedelina E.A. To'liq bo'lmagan oilada bolaning shaxsiyatini shakllantirish. / Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya va avtoreferat. - Lipetsk, 2012 yil.
6. Рашидов, Д. (2022). Ўзбекистонда инклюзив меҳнат бозори истиқболлари: аҳолининг ижтимоий эҳтиёжманд тоифаларини ишга жойлаштириш учун иш ўринларини захиралаш: ҳолат, муаммолар ва таклифлар. Scienceweb academic papers collection.